

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

1/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис



Nurmatova I.T. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning mustaqil musiqiy faoliyatini tashkil etish uslubi	491
Jabborova O.M., Kamolova F.K. Boshlang'ich ta'limda individual metodikadan foydalanish mazmuni	496
Sayliyeva M. M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining gumanitar fanlar turkumimi o'qitish jarayonida kreativlik ko'nikmasini shakllantirish	504
Eshmanova N.N., Matupayeva Sh.Z. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalarni joriy etishning o'ziga xos imkoniyatlari	508
Mamatova A.M. O'zbekistonda tarbiya masalasining yangi idroki	511
Tilavova S.B. STEAM yondashuvi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik kompetensiyasini rivojlantirish	517
Usmanova Q.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limning keyingi turlariga tayyorlash asoslari va tizimi	522
Mambetaliyev Q.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanqidiy fikrlashga o'rgatishning pedagogik asosi	525
Xo'jamiyarov S.Ch. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mas'uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-onalar hamkorligining ahamiyati	529
Турьмбетова З.Ю. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xulq-atvorining shakllanishida nutqiy faoliyatning o'rni	535
Xamidjonova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyati	539
Bo'riyeva T.A. Bolalarning tabiatga oid tadqiqiy-ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida tarbiya turlarini rivojlantirish metodikasi	544
Tirkashov M. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida axborot-tahliliy yondashuv asosida empirik tushunchalarni shakllantirish metodlari	549
Berdiyev B. R. Matematika darslarida kombinatorika elementlari, mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish metodlari	553
Keldiyarova V.B. Konstruksiyaviy usullar orqali bolalarda ko'rgazmali-obrazli tafakkurni shakllantirish	557
Keldiyorova M.F. Yosh mutaxassislarning kasbiy adaptatsiyasi jarayoniga tayyorlash	562
Yakubova G.L. Rasmiy va norasmiy ta'limning integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy munosabatini shakllantirish metodikasi	567
Ashirova S.B. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning metodik ta'minoti	571
Tilavova N.T. Montessori metodikasida bolalarga ekologik tarbiya berish	576
Nazirov U.Q. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari	581
Eshchanova G.O., Jumaniyozova N. F. Boshlang'ich sinf o'qish va matematika darslarida interfaol usullardan foydalanishga zamonaviy yondashuv	585
Rasulova Z. O'yinlar vositasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish – didaktik zaruriyat sifatida	591
Ravshanqulova D.R. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni turizm vositasi orqali ma'naviy-ahloqiy sifatlarini shakllantirish	595
Eshchanova G.O., Boltayeva M.I. Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etishga zamonaviy yondashuv	601
Shabbazova D.R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning ahamiyati	605
Xoliyeva S.R. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitishda kreativlikni rivojlantirish	610
Shermatova U.Sh. Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	613
Shermatova U.Sh. Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni rivojlantirish metodikasi	618
Ne'matova D.B. Mantiqiy masalalar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlashni rivojlantirish	623



O'ZBEKISTONDA TARBIYA MASALASINING YANGI IDROKI

Mamatova A.M.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch soʻzlar: tarbiya va zamonaviylik, tarbiya va anʼanaviylik, tarbiya va taʼlim, Oʻzbekistonda tarbiya, pedagogik metodika, tarbiyaviy texnologiya.

Ключевые слова: воспитание и современность, воспитание и традиционность, воспитание и образование в Узбекистане, педагогическая методика, воспитательная технология.

Key words: upbringing and modernity, upbringing and tradition, upbringing and education in Uzbekistan, pedagogical methodology, educational technology.

Kirish. “O‘zbekiston-2030” strategiyasida O‘zbekistonda taʼlim va tarbiya sohasini yangilash, uning yondashuvlarini innovatsiyalashtirish va milliy tarbiya konsensusini yaratish vazifalari qo‘yilgan[1;4]. Shu jihatdan bugungi kunda mamlakatimizda tarbiya masalasining mazmuni va uning asoslarini yangicha idrok etish taqozo etiladi. Mazkur o‘rinda ana shu masalaning eng muhim jihatlari, xususiyatlari, asoslari va texnologiyalari kabi masalalarining tahliliga e‘tiboringizni tortamiz. Mazkur yondashuvlar mualliflarning tajribasi va uzoq vaqt amalga oshirgan pedagogik kuzatuvlari natijasida qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Eslatib o‘tish joizki, tarbiya – avlodlararo ijtimoiy – tarixiy va hayotiy tajribani uzatish vositasidir[2;526]. Aynan mana shu mazmun va asos vositasida mamlakatimizda tarbiya jarayoni amalga oshirilib kelinmoqda va bu borada o‘ziga xos tajribaning to‘planganligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Natija: mamlakatimizda tarbiya masalasi bugungi kundagi eng muhim pedagogik vazifalardan biri bo‘lib turibdi. Chunki jamiyatimizda innovatsion rivojlanish sharoiti turli texnik vositalar va inson omili ishtirok etmaydigan texnologiyalarning kirib kelayotganligi tarbiya mazmuni va asoslariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani holda, uning samaradorligi va ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligini ham e’tirof etish lozim[3;7]. Chunki taʼlim oluvchilar texnik vositalarning imkoniyatlariga tayangan holda bilim va ma’lumotlarni



chuqurlashtirish imkoniyatiga ega bo'lmogda, ta'lim berishning virtual shakllari rivojlanib bormogda va natijada o'qituvchi – o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar ham texnik vositalar orqali amalga oshirilmogda. Buning natijasida ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik ko'rsatkichlarini baholab borish murakkab kechayotganligini eslatib o'tish joiz. Shu jihatdan O'zbekistonda tarbiya masalasining yangi idrokini his etish va uni belgilab olish dolzarb bo'lib turibdi.

Tarbiyaning an'anaviy yondashuvi. Milliy Pedagogika fanimiz tarixi va tajribasida asosiy masalalardan biri tarbiya bo'lib kelmogda. Shu sababli bunda tarbiyaning mazmuni, uning turlari, tamoyillari va metodikasi bo'yicha o'ziga xos an'anaviy tajribalar mavjud. Bularni e'tirof etish lozim. Shu jihatdan misol tariqasida bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tarbiyaning quyidagi turlarini eslatib o'tish joiz:

1) aqliy tarbiya;	7) iqtisodiy tarbiya;
2) axloqiy tarbiya;	8) ijtimoiy tarbiya;
3) ruhiy (ma'naviy) tarbiya;	9) siyosiy tarbiya;
4) estetik tarbiya;	10) mehnat tarbiyasi;
5) jismoniy tarbiya;	11) huquqiy tarbiya;
6) ekologik tarbiya;	12) fuqarolik tarbiyasi va h.k.

E'tibor berilsa tarbiyaning bu keng ko'lamli turi vositasida jamiyatimizda shaxsni voyaga yetkazish va uni tarbiyali inson sifatida hayot va faoliyatga tayyorlash ishlarini amalga oshirish Pedagogika fanimizning ustuvor vazifalari bo'lib kelmogda. Shu sababli an'anaviy tarbiya yondashuvida uning metodikasi ham an'anaviy tus olgan. Bu metodikaning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

1) tushuntirish metodi;	5) da'vat qilish metodi;
2) o'rgatish metodi;	6) namuna metodi;
3) ko'niktirish metodi;	7) ibrat metodi va h.k.
4) yo'naltirish metodi;	

Metodlarning bunday rang-barangligi asosida ta'lim jarayonida shaxsning umumiy tarbiya ko'nikmalari va malakalari tarkib toptirilmogda. Ayni paytda mazkur metodikalarda tarbiya asoslarini o'zlashtirish, fazilatlarga amal qilish, qoidalarga rioya qilish kabi xususiyatlarning ustuvor ekanligini ta'kidlash lozim. Buning natijasida an'anaviy tarbiya yondashuvi texnologik rivojlanish sharoitida muayyan murakkabliklarga duch kelmogda. Jumladan, tarbiya nazariyasida belgilangan yondashuvlarning texnologik rivojlanish jarayonida amaliyotga bog'lanishi qiyin kechayotganligi, tarbiya amaliyotining nazariya bilan uyg'unligida to'siqlar paydo bo'layotganligi ko'zga tashlanmogda. Natijada katta yoshlilar, hatto pedagoglar yoshlarning tarbiyalanganlik darajasidan qoniqish his qilinmayotganligi ham namoyon bo'lmogda. Bir so'z bilan aytganda, tarbiyaning an'anaviy yondashuvida avlodlar o'rtasidagi



noodatiy tushunmovchilik tarkib topganligi pedagog olimlarimiz oldida muhim vazifalarni qo‘ymoqda. Bunda ayniqsa, ta’lim oluvchi yoshlarning zamonaviy shaxs bo‘lishga intilayotganligi va ta’lim beruvchi pedagoglarning konservativ, ya’ni qat’iy an’anaviylik pozisiyada qolayotganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu jihatdan bugungi kunda tarbiya masalasining yangi mazmuni, xususiyatlari va yondashuvlarini idrok etish, uning asoslarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi.

Tarbiyaning zamonaviy yondashuvi. Biz zamonaviylik deganda muayyan an’anaviy hodisalarga nisbatan tahliliy qarash, jamiyatning bugungi va ertangi ehtiyojidan kelib chiqib ularni takomillashtirish, innovatsiya atalmish yangiliklar, yangi munosabatlar, yangi yondashuvlar va yangi samara beradigan yo‘llarni ishlab chiqishni tushunamiz. Shu jihatdan tarbiyaning zamonaviy yondashuvi – bu innovatsion jamiyatning ehtiyojlariga mos tarbiya jarayonini amalga oshirish vositalaridir. Mazkur masalada bizning yondashuvimiz quyidagilardan iborat:

1) tarbiyaning zamonaviy ko‘lami. Bunda tarbiyaning keng ko‘lamli ekanligi, ya’ni unda an’anaviy tarbiya turlarini bugungi ehtiyojlarga mos ravishda takomillashtirish va tarbiyaning qamrovini belgilab olishni nazarda tutamiz. Shu jihatdan tarbiyaning zamonaviy ko‘lami tarbiyadan ta’limga g‘oyasi asosida idrok etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Unga ko‘ra, ta’lim berish, ya’ni ta’lim oluvchilarning bilimi, ko‘nikmasi va malakasini tarkib toptirishda asosiy e’tibor tarbiyaning ustuvorligiga asoslanadi. Misol uchun, bilim berishning o‘zida tarbiya jarayoni mavjud bo‘lishi kerak. Buni qanday amalga oshirish mumkin? Bilim berish jarayonini shunday vositalar asosida qurish lozimki, ta’lim oluvchi nafaqat taqdim etilgan tushunchalar va g‘oyalarni o‘zlashtirishi, balki ular vositasida o‘z ongi va o‘zligida tarbiyaning kurtaklarini ham hosil etishi kerak. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, tarbiyadan ta’limga g‘oyasi bugungi kundagi bilimsizlik, texnik imkoniyatlarga me’yor darajasidan ortiq ishonish va har qanday ma’lumotlarni bilim asosida qabul qilish kabi tarkib topib kelayotgan pedagogik va ijtimoiy illatlarga barham beradi. E’tibor berilsa, ta’lim oluvchi yoshlarning ko‘pchiligi o‘zini bilimdon hisoblaydi, biroq xatti-harakati va faoliyatida tarbiya talablariga rioya qilmaydi. Donishmand mutafakkirlarimiz bilimli insonni eng oliy darajadagi tarbiyali shaxs sifatida qabul qilgani ma’lum. Bunday milliy tajribaga qaytish uchun tarbiyadan ta’limga g‘oyasini tiklash vaqti kelganligini ta’kidlab o‘tish lozim.

2) Tarbiyaning zamonaviy ustuvorligi. Bugungi jamiyatimizda ta’lim tizimida va Pedagogika fanimizda tarbiyaning zamonaviy ustuvorligi asoslarini belgilab olish dolzarb bo‘lib turibdi. Bunda qadimgi haqiqatni



yana idrok etish taqozo etiladi. Unga ko'ra, Pedagogika fani dastlab tarbiya asosida yuzaga kelgan va keyin unga ta'lim berish hamda shaxsni kasb hunarli qilish yo'nalishlari tarkib topganligi ma'lum. Shu ma'noda hozirgi zamon tarbiya jarayonining zamonaviy ustuvorligi jamiyatimizning innovatsion rivojlanish sharoitida shaxs va jamiyatning tarbiyalanganlik ko'rsatkichlarini saqlab qolish, faoliyatda tarbiyalanganlik ko'nikmalariga amal qilish, milliy tarbiyaviy qadriyatlarning yashovchanligini ta'minlash va mazkur masalalarning pedagogik hamda metodik asoslarini ishlab chiqish masalalari tashkil qiladi. Shu jihatdan eslatib o'tish joizki, umuminsoniy qadriyatlar asosida shaxsni tarbiyalash bevosita milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashdan kelib chiqishi lozim. Har bir mamlakat va xalqning milliy tarbiya tarbiyaviy qadriyatlari mavjud, ularning birortasida umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasiga zid keladigan asoslar uchramaydi, shu jihatdan mamlakatimiz milliy tarbiyaviy qadriyatlariga tayangan holda umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini amalga oshirishg muhim ahamiyatga egadir. Buning zaruriyati shu bilan belgilanadiki, modern tafakkuurga ega bo'lgan yoshlar va ba'zida katta yoshlilarning ongida umuminsoniy qadriyatlardan milliy qadriyatlarga o'tish g'oyasi tarkib topa boshladi. Bunday hol Pedagogika fani tarixida konmopolotizm, ya'ni Vatanparvar bo'lish uchun dunyo xalqlari vatanparvarligini o'zlashtirish kerak, mazmunidagi g'oyaga tayanadi. Aksincha, vatanparvar bo'lish uchun eng avvalo o'z millati va xalqining qadriyatli tarbiya asoslarini o'zlashtirish, shundan so'ng umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasiga o'tish hozirgi zamon tarbiya masalasining zamonaviy ustuvorligini tashkil qiladi. Misol uchun, tilda, ishda va fikrda birlik g'oyasiga tayangan jadid pedagoglari eng avvalo milliy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchini tarbiyalash, shundan keyin uni dunyo xalqlari qadriyatlari bilan tanishtirish masalasini metodik jihatdan asoslab berganligi ma'lum[4;41]. Bularning barchasi tarbiyaning zamonaviy ustuvorlik ko'lamlarini idrok etish va ularni belgilab olishni taqozo etadi.

3) Tarbiyaning zamonaviy texnologiyalari. Agar tarbiyaning an'anaviy yondashuvida tarbiyalash ishlarini amalga oshirish metodika sifatida baholab kelingan bo'lsa, bugungi zamonaviy tarbiyani amalga oshirish vositalari va yondashuvlarini texnologiyalar sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Unga ko'ra, tarbiyaning zamonaviy texnologiyalari tushunchasi tarbiya asoslari vositalari va metodikalarini o'ziga mujassam etgan, tez va kutilgan darajada samara beradigan yondashuvlar majmuini tashkil qiladi. Shu sababli bugungi kunda tarbiyaning o'quv-texnik vositalariga asoslangan tarbiya shakllari, yangiliklar va ma'lumotlarga tayangan holda qisqa muddatli tarbiya jarayonini amalga oshirish vositalari, individual tarbiya jarayoni,



shaxsni jamoaga ko'niktirish jarayoni, jamoaning har bir shaxs manfaatini ro'yobga chiqarish jarayoni, avlodlararo munosabatlarning yangilanib borish jarayoni, vorisiylikni anglashning milliy shakllari kabilar majmuasi tarbiyaning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqishda asos bo'ladi. Shu sababli mazkur masalalarni nazarda tutgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zamonaviy jadid ziyolilarini tarkib toptirish va ular vositasida Yangi O'zbekiston taraqqiyotini tarkib toptirish g'oyasini ilgari surayotganligini ta'kidlab o'tish lozim. Shu ma'noda Yangi O'zbekiston g'oyasining o'zi zamonaviy tarbiya yondashuvlarini ishlab chiqish va uning kundalik, o'rta va uzoq muddatli texnologiyalarini yaratish vazifasini qo'ymoqda. Bunda zamonaviy kundalik tarbiya texnologiyalari tarbiyadagi bugungi kunda yuzaga keladigan muammolarni hal etishi, o'rta muddatli, ya'ni 5 yilga mo'ljallangan tarbiya texnologiyalari muayyan tarbiya oluvchilar guruhini tarbiya asoslarini va uzoq muddatli tarbiya texnologiyalari esa mamlakat miqyosida istiqdolini zamonaviy tarbiyani amlaga oshirib borish shakllarini belgilab berishi kerak. Shuni eslatib o'tish joizki, bugungi rivojlangan davlatlarning ko'pchiligida davr ehtiyoji va sharoitiga mos ravishda tarbiya asoslari yangilanib va takomillashtirib borilgan[5;90]. Demak, jamiyatning muayyan davrida strategik rivojlanish islohotlarini amalga oshirish jarayonida tarbiyaning ham ana shunday islohotlariga mos bo'lishi taqozo etiladi. Bularning barchasi Pedagogika fanimizda tarbiyaning zamonaviy texnologiyalari majmuini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Diqqat qilinsa, tarbiyaning zamonaviy yondashuvi Yangi O'zbekiston ehtiyoji, yangi avlod zaruriyati va yangicha fikrlaydigan pedagoglarga bo'lgan ehtiyojlarning hosilasi sifatida idrok etiladi.

Kezi kelganda eslatib o'tish joizki, 2019 yildan boshlab mamlakatimizda xalqaro ta'lim dasturlariga asosan o'quvchilarning bilim darajalari va pedagoglarning mahorat ko'rsatkichlarini baholab borish joriy etildi. Lekin bunday xalqaro baholash ta'lim dasturlarida asosiy e'tibor ta'lim oluvchilarning bilimi va ta'lim beruvchilarning bilim berish mahorati ko'rsatkichlarini aniqlashga qaratiladi. Bu kabi tadqiqotlarda ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik ko'rsatkichlarini o'rganilmaydi. Shu ma'noda mamlakatimizda O'zbekistonning milliy tarbiyalanganlik ko'rsatkichlarini aniqlash va o'rganishga qaratilgan o'ziga xos dasturlar, tadqiqotlar talablari hamda uning natijalarini baholaydigan indikatorlar majmuini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Bunda O'zbekistonning milliy tarbiyalanganlik ko'rsatkichlarini aniqlash Indikatori dasturini yaratish va u asosda



jamiyatimizning tarbiyalanganlik ko'rsatkichlarini baholab borish bizningcha, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bizning asosiy maqsadimiz bu o'rinda Pedagogika fanimizdagi an'anaviy tarbiya yondashuvi tajribalaridan foydplangan holda, zamonaviy tarbiya yondashuvlari tizimini ishlab chiqishdan iborat. Shu sababli mazkur masala bo'yicha ta'lim sohasi va tarbiyaning amaliy ishtirokchilari hamkorligida mazkur masalalarni o'rganish hamda ularning asoslarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa va tavsiyalar. O'zbekistonda ta'lim masalasining yangi idroki Pedagogika fanining tarbiya yo'nalishini takomillashtirish asoslariga tayanadi. Shu jihatdan tarbiyaning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy jorish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tarbiyaning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqishda uning ko'lamini beglilash, ustuvorli xususiyatlarini aniqlab olish va tarbiyaning zamonaviy texnologiyalari majmuini yaratish bo'yicha tavsiyalarni taqdim etish kutilgan samarani beradi. Bundan asosiy maqsad Yangi O'zbekiston sharoitida jamiyatda tarbiya jarayonini yangi va zamonaviy asoslar, yondashuvlar va texnologiyalarga tayangan holda amalga oshirishdan iborat. Mazkur masalalar bo'yicha mutaxassislarimizning fikr-mulohazalarini bilish bizning asosiy maqsadlarimizdan biridir.

Adabiyotlar:

1. "O'zbekiston-2030" strategiyasi. // www.ziynet.uz
2. Mualliflar jamoasi. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – Toshkent, 2010
3. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'limda Tarbiya fanini o'qitish metodikasi, -Toshkent, 2022
4. Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. - Toshkent, 2021
5. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. –Sankt-Peterburg. 2001

PEZIOME

Maqolda O'zbekistonda tarbiya masalasining yangi idroki tahlil etilgan va mualliflarning yondashuvlari taqdim etilgan.

PEZIOME

В пословице проанализировано новое восприятие вопроса воспитания в Узбекистане и представлены авторские подходы.

SUMMARY

The proverb analyzes the new perception of the issue of education in Uzbekistan and presents the author's approaches.